

KASBIY TA'LIM TIZIMI ISLOH QILINMOQDA

Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi direktori
Axmedova Muborak Marksova

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy ta'lim tizimi isloh qilinishi yuzasidan prezidentimizning 2025 yil 23 oktabrdagi PQ-316 sonli qarorlarining mazmun mohiyati atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, qaror, imtiyoz.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va "Kasbiy ta'lim tizimida islohlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror imzolandi. Kasbiy ta'lim tizimini 2030-yilga qadar isloh qilishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi.

Ular:

- xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini kamida 250 taga;
- 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'lim bilan qamrovini amaldagi 29 foizdan 50 foizga;
- kasbiy ta'lim tizimida dual ta'lim ulushini amaldagi 9 foizdan 40 foizga;
- kasbiy sertifikatga ega ishlab chiqarish ta'limi ustalari ulushini 30 foizga;
- xorijda malaka oshirish va stajirovka o'tash dasturlarida ishtirok etgan pedagoglar sonini 100 nafardan 2 500 nafarga yetkazish.

Farmonga ko'ra, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Kasbiy ta'lim agentligi tashkil etildi. Agentlik markaziy apparati boshqaruv xodimlarining cheklangan shtatlar soni 70 ta etib belgilandi.

Ushbu shtat birliklari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidan 30 ta, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan 25 ta, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Kasbiy ko'nikmalar markazining 15 ta shtat birligi hisobidan shakllantiriladi.

Agentlik:

-texnikumlar faoliyatini muvofiqlashtirish va kasbiy ta'lim sohasini boshqarishga mas'ul bo'ladi;

-kasbiy ta'lim dasturlari mazmuni, malaka darajalari, o'qitishning minimal muddatlari, bitiruvchilar bilimni baholash mezonlari hamda o'quv-metodik ta'minotga talablarni belgilaydi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan "vaucher" tizimi bilan qamrab olinmagan shaxslarni kasbga o'qitadi.

Migratsiya agentligining xorijiy ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib bergan buyurtmalari asosida fuqarolarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitadi.

Dual ta'limni rivojlantirish bo'yicha ham bir qancha o'zgarishlar bor. 2026/2027-o'quv yilidan boshlab dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilarga maxsus platforma orqali stipendiya to'lash yo'lga qo'yiladi. Har oylik stipendiya BHM bir baravari miqdorida to'lanadi.

Texnikumlar Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan yuritiladigan milliy reyting natijalari asosida rag'batlantiriladi. Milliy reyting 2026-yildan boshlab har o'quv yili yakuni bo'yicha yuritiladi hamda unda eng yuqori o'rinni egallagan 50 ta texnikumning har biri BHM 3 000 baravari miqdorida rag'batlantiriladi. 2026-yildan boshlab har yili texnikumlar o'quvchilari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun "Kasbiy mahorat milliy tanlovi" o'tkaziladi.

Shuningdek, Prezidentimiz qarori bilan 2030-yilga qadar texnikumlar faoliyatini tugatish, ularga tegishli yer uchastkalari, bino va inshootlar hamda boshqa ko'chmas mulk obyektlarini xususiylashtirishga moratoriy joriy etildi.

Qarorga ko'ra, umumta'lim fanlari o'qituvchilari A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti hamda hududiy markazlarda malaka oshiradi.

Shuningdek, maxsus fan o'qituvchilari yetakchi oliy ta'lim tashkilotlarida, ishlab chiqarish ta'limi ustalari esa hududiy ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari yoki sohaviy malakani oshirish muassasalarida bilim va ko'nikmalarini yangilaydi.

Qarorga muvofiq, har yili malakani oshirish jarayonida eng yuqori natijaga erishgan 50 nafar pedagog — ishlab chiqarish ustalari, umumta'lim va maxsus fan o'qituvchilari xorijiy tajriba almashish dasturlariga yuboriladi.

Bu tashabbus sohada xalqaro standartlar va ilg'or uslublarni joriy etishga xizmat qiladi. Ta'lim vazirligi ma'lumoticha, xorijdagi malaka oshirish dasturlari orqali o'qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim usullari va ishlab chiqarish amaliyotini integratsiya qilish bo'yicha bilimlar oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2025-yil 23-oktabrdagi PQ–316-son qarori